



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

2023-yil 28-noyabr

TOSHKENT-2023

UDK 04
KBK 93
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

Mas’ul muharrir:

Xudoyev G‘anijon – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Tahrir kengashi a‘zolari:

Turg‘unova Nasiba – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Yakubov Zohidjon – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

Xudoyqulova Nilufar – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan tezis va maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.

XV asrdan so‘ng iste‘molga *nasta‘liq* yozuvi kirgan. Alohida farmon va hujjatlar *ta‘liq* yozuvida bitilgan.

Tarixiy asarlar mazmuni va tarkibiga kelganda shuni aytish kerakki, ularda matn an‘anviy Alloh hamdi – tahmid, payg‘ambarimiz na‘tlari, to‘rt sahoba yoki sahobai roshidin ta‘rifi kelib, undan so‘ng asar kimga bag‘ishlangan bo‘lsa, odatda ular yuksak lavozimdagi shaxslar yoki hokimlar bo‘lgan, o‘sha homiylarga bag‘ishlov-maqtov yoziladi va ana shundan keyin kamtarin muallif o‘zi haqida, qanday asar yozmoqchi ekanligi, uning nomi va asarning ixcham mazmuni yoki zamonaviy til bilan aytilsa, annotatsiyasi bayon etiladi.

Asarning oxiridagi xotima – kolofonda esa, muallif asarini tugatib olgani uchun Allohga shukronalar keltirib, mazkur qo‘lyozma asar va uning ushbu nusxasi, ko‘chirilish joyi va tarixi, xattoti haqida ma‘lumot keltiriladi. Tarixiy asarlarda keltiriladigan “Qur‘oni karim” oyatlari va “Hadisi sharif” namunalari, odatda asosiy matndan ajratib, va ko‘pincha boshqa yozuv, xat turi, masalan kufiy, nasx yohud suls yozuvida boshqacha siyoh bilan bitilib, alohida ziynatlanadi”⁷⁴.

Ushbu ta‘rif bo‘yicha deyarli barcha manbalar shu tartibda, birin-ketinlikda manba muallifi tomonidan amalga oshirilgan.

Bundan kelib chiqadigi, bizning qalblarimiz Islom diniga qanchalik talpinishi, uning arkonlarini birday bajarishi urf etilgan. Shul sabab, arab yozuvidagi manbalarning bayon etilish holati birday bajarilishiga e‘tibor qaratilgan.

Ushbu ma‘ruzamizga kichik bir xulosa qiladigan bo‘lsak, manbalarni o‘rganish bilan shug‘ullanayotgan musiqiy-manbashunoslar qaysidir ma‘noda Islom dini tarixi, amallaridan xabardor bo‘lsa, nur ustiga nur bo‘lardi, deb niyat qilib qolamiz.

Adabiyotlar

1. Oripov Z. X-XV asrlar Markaziy Osiyo musiqa manbashunosligi. - Toshkent, 2017.
2. Madrimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. - Toshkent, 2007.

O‘RTA OSIYO XALQLARINING QADIMGI MADANIY MEROSI

Ibrohim QAYUMOV,

*Buxoro davlat universiteti “San‘atshunoslik” fakulteti
Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedراسi katta o‘qituvchisi.*

***Annotatsiya:** Maqolada ko‘pgina tarixchi, arxeolog, etnograf olimlar kishilik madaniy taraqqiyoti darajasini davrlashtirish muammosi ustida bosh qotirib, ilmiy izlanishlari natijasi hamda turli xil manbalarga tayangan holda, kurrai zaminda 5 marta yirik sivilizatsiya yuksalishlari ro‘y berganligini e‘tirof etadilar.*

***Kalit so‘zlar:** xalq, madaniyat, milliy meros, musiqiy meros, ma‘naviyat, tarbiya, jarayon, faoliyat, nafasat.*

O‘rta Osiyoda Miloddan avvalgi 3 ming yillikning o‘rtalarida bronza (mis, qalay va qo‘rg‘oshin qorishmasi) davri boshlanishi bilan ota urug‘i - patriarxat topadi. Bronza davrida dehqonchilik xo‘jaligi yangi yerlarda, jumladan O‘zbekiston hududida ham keng yoyilgan. Mazkur davrda ishlab chiqarish munosabatlari tez

⁷⁴ Abdumajid Madrimov, Gavhar Fuzailova. Manbashunoslik. – Toshkent, 2007. 81–82-B.

rivojlanib, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar yangi asosda taraqqiy etadi.

O'rta Osiyoda qabilalar tomonidan yangi yerlarni keng o'zlashtirish jarayoni miloddan avvalgi 4 ming yillikning oxiri - 3 ming yillikda boshlangan. Zarafshonning yuqori qismida, Panjikent shahridan 15 km g'arbda topilgan 90 gektar maydonda joylashgan Sarazm qishlog'i harobasi moddiy topilmalarida Janubiy Turkmaniston ziroatchilari va Xorazmning Kaltaminor madaniyatlariga mansub buyumlar bor. Xuddi shu davrda (miloddan avvalgi 4-3 ming yilliklarda) Afg'onistonning shimoli-sharqida Hind-Pokistonning mashhur Xarappa madaniyati vakillarining makonlari paydo bo'ladi.

Bronza davrida O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarida baland bo'yli, boshi cho'zinchoq, yuzi tor odamlarning vakillari tarqalgan. O'rta Osiyoning shimoliy dasht va cho'l qismida janub aholisidan farq qilgan boshi dumaloq, yuzi juda keng va cho'ziq bo'lmagan qabilalar yashagan. Janubiy qiyofali odamlar O'rta yer dengizi irqining vakillari deb ataladi. Ular Old Osiyo, Mesopotamiya, Eron, Afg'oniston, O'rta Osiyoning janubi, Hindiston kabi katta grafik hududga yoyilganlar. Shimoliy qiyofali odamlar Janubiy Sibir hududidan to Qozog'iston va O'rta Osiyoning shimoli-sharqiy qismida, Ural, Volga yerlarigacha tarqalganlar.

Miloddan avvalgi 2 ming yillikning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo hududida qadimgi janubiy va shimoliy qiyofadagi, ya'ni dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan odamlar vakillarining aralashib ketishi jarayoni boshlanadi. Shu davrga kelib bronza davri qabilalari O'rta Osiyodagi turli elatlarga asos solganlar.

O'zbekiston hududida joylashgan shu elatlarning vakillari - so'g'dlar, baqtriylar, xorazmiylar va saklar, o'zbek xalqining qadimgi ajdodlaridan bo'lib, ular haqida ayrim ma'lumotlar qadimgi yozma manbalarda saqlangan.

Miloddan avvalgi 1 ming yillikdan boshlab, yirik madaniy-tarixiy viloyatlar - Xorazm, Baqtriya, So'g'd, Farg'ona, Shosh (Choch) qadimdan, to o'rta asrlargacha Sharq hududlarida juda mashhur bo'lgan.

Antropologik va yozma manbalarning ma'lumotlari O'rta osiyoda alohida eng qadimgi elatlarning shakllanishi va etnik hududlarning ajrala boshlashi miloddan avvalgi IX - VIII asrlarga oid bo'lgani haqida dalolat beradi. Bu masalani o'rganish juda murakkab muammo bo'lsa ham, shubhasiz aytib o'tish kerakki, miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmida Erondagi ahmoniylar sulolasi podsholarning O'rta Osiyoga yurishlari boshlanganda bu elatlarning ajrala borish jarayoni butunlay tugagan va turli qadimgi xalqlarning hududiy joylashuv chegaralari, viloyatlarning umumiy chegaralari ahmoniylardan ancha oldingi davrlarda shakllangan edi. Yozma manbalarga ko'ra ahmoniylar O'rta Osiyoning alohida yirik viloyatlariga qarshi harbiy yurishlarni boshlaganlar. Demak, O'rta Osiyo viloyatlari va aholisi haqida, ularning hududiy joylashuvi va ayrim viloyatlarning chegaralari haqida Sharqda turli ma'lumotlar to'plangan edi.

Jahon tarixidagi ilk davlatlar dehqonchilik kabi ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklar paydo bo‘lgan joylarda shakllandilar. Ming yillar davomida faqat termachilik va ovchilik hisobiga yashab kelgan, dehqonchilikni bilmagan ko‘pgina qabilalar va elatlar davlatchilik bosqichiga ko‘tarila olmadilar.

Eng qadimgi davlatlar miloddan avvalgi 4-ming yillikda Ikki daryo oralig‘ida (Mesopotamiya) va qadimgi Misrda paydo bo‘ldi. Bundan 10 ming yillar ilgariyoq bu yerda termachilik va ovchilik asosida ekinlarni yetishtirishga va yovvoyi hayvonlarni qo‘lga o‘rgatish - chorvachilikka o‘tish boshlanadi. Asta-sekinlik bilan dehqonchilik bu yerdan qo‘shni hududlarga (Kavkazorti, Eron, O‘rta Osiyo, Hindiston, Xitoyga) tarqaladi. Miloddan avvalgi 3-2-ming yillikdayoq Qadimgi Sharq mamlakatlari o‘rtasida qalin tarixiy-madaniy aloqalar mavjud edi.

Arxeologik topilmalar shuni ko‘rsatmoqdaki, miloddan avvalgi 2-ming yillik o‘rtalarida O‘zbekiston (Surxon vohasi)da qadimgi dehqonchilik madaniyati rivojlanishi asosida ilk davlatchilikka o‘tish jarayoni boshlanadi. Bu jarayon bosqichma-bosqich rivojlanishining o‘ziga xos xususiyat va qonunlarga ega edi.

Dastlabki davlatlar alohida makonlar yoki ilk shaharlar hamda ishlov beriladigan yerlar va sug‘orish tizimi maydoni bilan chegaralangan nisbatan kichik hududda, ya'ni zich o‘zlashtirilgan, xo‘jalik va ishlab chiqarish maqsadida keng foydalaniladigan qadimgi sug‘orma dehqonchilik vohalarida paydo bo‘lgan. Bunday vohalar aholisi uchun tashqi harbiy bosqinlardan himoyalanish, makonlar va manzilgohlar hududini mudofaa qilish, sug‘orish va dehqonchilik ishlarini tashkil etish, jamoaning ichki va tashqi aloqalarini boshqarib turish masalalarni yechish muhim va hayotiy zaruriyat edi.

Shu tariqa, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar taraqqiyoti jamiyatda alohida hurmat-e‘tiborga bo‘lgan kishilarning ajralib chiqishga olib keldi. Ular ijtimoiy ishlab chiqarishda doimiy band bo‘lmasdan, faqatgina ijtimoiy va xo‘jalik hayoti ustidan nazorat va rahbarlikni amalga oshirdilar. Lekin, ular na boy-badavlat kishilar, na ekspluatatorlar va na quldorlar edi. Jamiyatda bunday kishilarning ajralib chiqishiga ularning axloqiy xislatlari va obro‘-e‘tibori sabab bo‘lgan xolos. Ammo bu muhit keyinchalikkina alohida to‘q oilalarning paydo bo‘lishiga olib keldi va asta-sekinlik bilan jamoadagi yuksak hurmatga asoslangan hokimiyat meros tariqasida otadan o‘g‘ilga o‘ta boshladi.

O‘rta Osiyoda dastlabki davlat uyushmalari ham dehqonchilik vohalari aholisini chetdan bo‘ladigan bosqinchilardan himoya qilish va jamoadagi munosabatlarni huquqiy boshqarib turish uchun tashkil topdi.

O‘rta Osiyo xalqlari ajdodlarining ilk davlatchiligi ancha qadim ildizlarda ega. Milliy davlatchiligimiz shakllangan bronza davriga oid birorta yozma ma'lumotlar yo‘q. O‘zbekistonning bu davrga oid tarixi faqatgina arxeologik tadqiqotlar natijalari asosida yoritilib, ular jamiyat taraqqiyotidagi barcha murakkab jarayonlarni to‘liq

ochib bera olmaydi.

Miloddan avval III asrning o'rtalarida mustaqil davlat sifatida tashkil topgan Parfiya davlati hozirgi Turkmaniston va Eronning bir qismini o'z ichiga olgan.

Bu davlatning birinchi hukmdori Arshak bo'lib, u miloddan avval 247-yili taxtga o'tiradi. Miloddan avval 235-yildan boshlab, Parfiya podsholari o'z yerlari hududlarini kengaytirib bordilar.

Milodiy III asrning birinchi choragida sosoniylar arshakiylar hukmronligini tugatib, Parfiyada hokimiyatni qo'lga oldilar. Antik davr Parfiyaning qishloq xo'jaligida qullar mehnatidan keng foydalanilgan. Miloddan avval III asr o'rtalaridan boshlab Parfiya davlati hozirgi O'zbekiston hududlarida joylashgan qadimgi viloyatlar – Xorazm, Baqtriya, So'g'diyona bilan siyosiy, madaniy va iqtisodiy munosabatlarni ayniqsa rivojlantirdi.

Undan tashqari, parfiyaliklar besh asr davomida Hindiston, O'rta Osiyo va Xitoy-ning g'arb mamlakatlari bilan qilgan savdo aloqalarida vositachilik qildilar. Parfiyaliklarning yozuvi oromiy (Niso hujjatlari) yozuvi bo'lib, zardo'shtiylik diniga e'tiqod qilishgan.

Qadimgi Farg'ona turli davr manbalarida Dovon, Boxan, Polona, Parkana kabi nomlar bilan eslatib o'tiladi. Ma'lumotlarga qaraganda Ershi (Marhamat) shahri Dovonning poytaxti edi. Antik davr Dovon aholisi dehqonchilik, uzumchilik, yilqichilik bilan shug'ullanishgan. Dovonning «samoviy otlari» o'lkadan tashqarida ham ma'lum va mashhur bo'lgan.

Miloddan avval II asrning oxirlarida Xitoy hukmdorlari Dovon yerlarini bosib olishga harakat qildilar. Ammo qo'shni davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan dovonliklar o'z mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldilar.

Miloddan avval III asrlar boshlarida paydo bo'lgan Qang' davlatining hududlari Sirdaryoning o'rta oqimidagi yerlar edi. Miloddan avval II-I asrlarda Qang' davlati yerlari kengayib, Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlar va Xorazmni o'z ichiga oladi. Antik davrida Qang' davlati ancha rivojlangan davlat edi. O'troq aholi asosan vodiylarda yashab, dehqonchilik, bog'dorchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelishgan. Qang' hukmdorlarining markaziy shaharlari ikkita edi. Ular yozni O'trorda (hoz. Aris va Turkiston oralig'ida), qishlovni esa Qang'a (hoz. Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanida) shaharlarida o'tkazar edilar.

Miloddan avval I asrga kelib, O'rta Osiyo hududlarida antik davrning eng qudratli davlatlaridan biri bo'lgan Kushon davlati tashkil topadi. Dastlabki hukmdorlar Kad-fiz I va Kadfiz II lar davlat yerlarini kengaytirib, pul islohoti o'tkazadilar.

Antik davr O'rta Osiyo xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mil. avv. IV-II asrlar oromiy yozuvi asosida Xorazm,

Parfiya va So'g'd yozuvlari paydo bo'ldi. Kushon davriga kelib yana bir yozuv-Kushon (Baqtriya) yozuvi shakllanadi. O'rta Osiyo va Afg'oniston hududidagi arxeologik tadqiqotlar antik davr madaniyatining gullab yashnaganidan dalolat beradi. Ayri-om va Ko'hna Termizda Budda ibodatxonalarini ochilgan. Fayoztepa, Quva, Xolchayon, Dalvarzin kabi ko'hna shaharlarda ham saroylar, ibodatxonalar ochilib, ular yuksak madaniyatga ega ekanligi kuzatilgan. 1972 yilda Dalvarzintepadan (Surxondaryo) tilla buyumlar xazinasi (32 kg) topilgan. Bu xazina orasida antik davrga oid bilaguzuk, halqalar, to'g'alar, bo'yin taqinchoqlari kabi san'at buyumlari ham bor. Umuman, antik davr Qang', So'g'd, Farg'ona yerlarida mavjud bo'lgan madaniyat o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tariladi.

Adabiyotlar

1. Саидий Саид Болта-Зода, Лады Узбекского народа и средневековые лады. Science and Education 3 (8), 169-174
2. Саид Болта-Зода Саидий, Эстетика и музыка, связь между ними. Science and Education 3 (8), 217-223
3. Saidiy S.B. Markaziy Osiyo madaniyati tarixi urma zarbli cholg'ular. // O'quv qo'llanma. "Musiqqa" nashriyoti. Toshkent-2008 yil.
4. Kayumov I.F. Values and aesthetic factors in the formation of culture and art //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – T. 12. – №. 1. – С. 10.
5. Ibragim Fayzullayevich Kayumov. Xalq qo'shiqlari asosida boshlangich sinf o'quvchilarining nutqiy malakasini o'stirish usullari // Scientific progress. 2021. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/xalq-qo-shiqlari-asosida-boshlangich-sinf-o-quvchilarining-nutqiy-malakasini-o-stirish-usullari> (дата обращения: 26.10.2023).
6. Каюмов И.Ф. и др. Санъатнинг турлари ва уларнинг тарбиявий аҳамияти //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 849-854.
7. Kayumov I.F. Formation of composing art in uzbek music //Researchjet journal of Analysis and Inventions. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 61-65.

MUMTOZ MUSIQAMIZNI O'RGANISHDA MUSIQIY RISOLALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

(O'lmas Rasulovning ilmiy-uslubiy ishlari misolida)

Dilovar QODIROVA,

*O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a'zosi
Buxoro ixtisoslashtirilgan san'at maktabi oliy toifali o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada atoqli bastakor hassos sozanda, qimmatli tajribaga ega bo'lgan ustoz, ijodkorlik hamda ijrochilik maktabining hozirgi kundagi ko'zga ko'ringan yirik vakillaridan biri O'zbekiston xalq artisti O'lmas Rasulovning sozandalik, bastakorlik, ustozlik borasidagi izlanishlari, uzoq yillik tajribasi davomida yuzaga kelgan musiqiy risolalari, ularning ichki tuzilishi, ijrochilik an'analari, ovoz xususiyatlari, ijroda qo'llanish uslublari, ijro vositalari, musiqiy bezaklari, shuningdek ahamiyati borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlari: Bastakor, sozanda, xonandalik, an'anaviy musiqqa, parda, nola, ovoz xususiyati, musiqiy risola, alloma, mumtoz kuy, bezak, hofiz, sozanda, ustoz-shogird an'anasi.

Kozimova Z. Navo soz aylasang.....	100
Xamidova M.A., Nurullayev F.G. Halima Nosirovaning yorqin san'ati.....	105
Rashidov S.A. Mumtoz musiqamiz o'tmishi va buguniga bir nazar.....	106
Hasanova G.S., Xudoyev G'.M. Dutor ijrochiligida "Ustoz – shogird" an'anasi.....	108
Omonjonova O., Ergasheva Ch.E. "Baxshi" musiqali teatri.....	111
Bekboyeva N.M. Xonandalik amaliyotida Farg'ona – Toshkent maqom yo'llarining ijrochilik xususiyatlari.....	115
Baxtiyorova M., Ergasheva Ch.E. Kompozitor – Farrux Akramov.....	119
Абдивалиева С.А. К проблеме изучения творчества Алишера Икрамова в узбекском музыкознании.....	123

3-SHO'BA

O'ZBEK MUSIQASHUNOSLIK, MADANIYATSHUNOSLIK VA ETNOMUSIQASHUNOSLIK MUAMMOLARI

Ashurov B.Sh. Sharq musiqiy manbashunosligiga bir nazar.....	126
Qayumov I.F. O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi madaniy merosi.....	128
Qodirova D.R. Mumtoz musiqamizni o'rganishda musiqiy risolalarning o'rni va ahamiyati (<i>O'lmas Rasulovning ilmiy-uslubiy ishlari misolida</i>).....	132
Nurullayeva N.K. O'rta Osiyo xalqlari XVI asrgacha davrdagi musiqa ilmining rivoji.....	137
Amonov D.A. Manbashunoslikga bir nazar.....	140

4-SHO'BA

TA'LIM TIZIMIDA MILLIY MUSIQA SAN'ATINING O'QITILISHI

Bahriyev A.R. O'zbek musiqiy merosi tasarrufining ta'limiy hamda ijtimoiy masalalari.....	145
Rajabov T.I. Musiqa madaniyati darslarida Buxoro bolalar folklor qo'shiqlarini o'rgatish metodikasi.....	147
Xudoyev G'.M. G'ijjak cholg'u sozida milliy musiqiy merosni o'rganish masalalari.....	151
Режаметова Н.И. Значение изучения наследия великих мыслителей востока в дошкольном музыкальном образовании и воспитании.....	156
Xuramov U.K. Zamonaviy nota yozuviga qisqacha tavsif.....	160
Nurullayev F.G., Habibullayeva G.H., Rustamov F.T. O'zbek folklor qo'shiqlarining bolalar ta'lim-tarbiyasida tutgan o'rni va tarbiyaviy ahamiyati...	166
Sadatov Ch.Kh. Development of students' skills through technological education and oriental miniature art in art classes at school.....	168
Mo'minova Z.I. Maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy cholg'uda dastlabki ijrochilik faoliyatini tashkil etish metodikasi.....	170
Embergenova G.A., Yo'ldoshev L.E. Milliy musiqa san'ati va yoshlar tarbiyasi.....	173
Khojageldiyeva M.E. Content of music culture lessons and elements organizing the Music Education System.....	175
Бердиханова Ш.Н. О специфике каракалпакских дастанов.....	178
Safarov U.H., Atamurotova N.T., Normamatova K.F. Zarautsoy va Sarmishsoy	